

**FORS TILIDA PAYT RAVISHLARINING DERIVATSION
XUSUSIYATLARI**

Allamberganova Nafisa Ulug'bek qizi

TDSHU Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi

Qiyosiy tilshunoslik va lingvistik tarjimashunoslik mutaxassisligi

1-kurs magistranti

Anotatsiya: Maqola ravishlar, ayniqsa, vaqtga oid ravishlar va ularning gap tuzilmasidagi roli haqida soʻz yuritadi. Muhokama vaqtni ifodalovchi ravishlarning nutq va grammatikadagi vaqtga oid jihatlarni qanday ifodalashga yordam berishini taʼkidlaydi. Turli xil vaqtga oid ravishlar, ularning gapdagi oʻrni va ular qanday qilib aniq vaqtiy noaniqliklarni ifodalashda qoʻllanilishi tahlil qilinadi. Muallif matnlardan misollar keltirib, vaqtning gap tuzilmasiga qanday taʼsir koʻrsatishini va ravishlar vaqtiy munosabatlarni qanday ifodalashda yordam berishini koʻrsatadi.

Kalit soʻzlar: ravishlar, oddiy ravishlar, hosil qilingan ravishlar, birikma ravishlar, predlogli ravishlar, vaqtga oid ravishlar, vaqtiy ifodalar.

Abstract: The article explores adverbs, with a specific focus on time-related adverbs and their role in the structure of sentences. The discussion emphasizes how Adverbs indicating time contribute to expressing temporal aspects in speech and grammar. Different types of time adverbs, their positions within a sentence, and how they are used to express specific temporal nuances are analyzed. The author presents examples from texts to illustrate how time influences sentence structure and how adverbs help convey the subtitles of temporal relations.

Key words: adverbs, simple adverbs, derivative adverbs, compound adverbs, prepositional adverbs, time adverbs, temporal expressions.

Аннотация: В статье рассматриваются наречия, а также их особенность в контексте употребления времени. Описание фокуса на

использовании наречий, указывающих на время помогает лучше понять их функцию в предложении, а также их роль в образивании грамматических конструкций. Обсуждаются различные типы наречий времени, их места в предложении, а также способы их использования для выражения определенного временного аспекта действия. Автор анализирует примеры из текста, наглядно показывая, как время влияет на структуру предложения, и как наречия помогают в передаче нюансов временных отношений.

Ключевые слова: наречия, простые наречия, производные наречия, сложные наречия, предложные наречия, временные наречия, временные выражения, время.

Kirish.

Fors tilida ravish harakat yoki holatning belgisini o'zida ifoda etuvchi muhim so'z turkumi hisoblanadi. Ravishlar mustaqil so'z turkumi sifatida semantik va sintaktik jihatdan ajralib turadi. Sintaktik hodisalarni morfologik hodisalardan ayro holda, va aksincha, morfologik hodisalarni sintaktik hodisalardan alohida o'rganib bo'lmaydi. Har bir gap bo'lagi o'z morfologik ifodalovchisiga ega. Masalan, holning morfologik ifodalovchisi sifatida asosan ravish qo'llaniladi. Ravishlarning quyidagi ma'noviy turlari mavjud: holat (tarz) ravishlari (tez, sekin, piyoda kabi); o'rin ravishlari (uzoqda, yaqindan, pastda kabi); payt ravishlari (hozir, kecha, bugun kabi); daraja-miqdor ravishlari (ancha, sal, kam kabi); maqsad ravishlari (ataylab, jo'rttaga kabi); sabab ravishlari (noiloj, ilojsiz, chorasizlikdan kabi). payt, o'rin va maqsad ravishlaridan boshqa barcha ravishlarni, eng umumiy xususiyatlariga ko'ra, bir turga kiritish va ularni holat (tarz) ravishlari deb atash mumkin. Ta'kidlash joizki eron tilshunoslari „qeyd“, ya'ni ravish deb nomlamgan so'z turkumiga turlicha nom berishadi. Masalan, Xayyompur ravishga fe'lni bog'lash uchun ishlatiladigan, uning ma'nosiga zamon va makon ma'nolarini qo'shadigan so'z, deb ta'rif bergan¹. Husayn Ajamiyning grammatikasida ravish deb ish-harakatning holati va belgisini bayon qiluvchi so'zlarga aytiladi. Gapda ravish savol qo'yish orqali aniqlanishi

¹ دکتر خیامپور. دستور زبان فارسی. - تهران، ۱۳۵۲. - ص. 88-89.

ta'kidlanadi. Masalan, چقدر qancha?, كجا qayerda?, كى qachon, چگونه qanday qilib? So'roqlari bu maqsadda ishlatiladi². Fors tilida ravishlar qator olimlar ishlarida ko'rilgan bo'lsa-da, alohida tadqiqot sifatida A.Rzayeva tomonidan o'rganilgan. Muallif bir guruh olimlar fors tilida ravishga mustaqil so'z turkumi sifatida qaramay, uni sifat bilan tenglashtirganliklari, biroq fors tilida ravish o'z ma'nosiga, o'z morfologik xususiyatlari va sintaktik vazifalariga ega mustaqil so'z turkumi ekanligini ta'kidlaydi³.

Mazkur maqolada manba sifatida Takayyun Hamzaluning «Afsune sabz» asaridan foydalanildi.

Ravishlar harakat va holatning belgisini bildiruvchi hususiyatga egaligi sabab, ushbu turkumga oid so'zlar, asosan, fe'lga bog'lanib keladi.

Payt ravishi ish-harakatning bajarilish paytini bildiradi. Payt ravishlari gapda asosan payt holi vazifasini bajaradi.

Fors tilida payt ravishlari struktur jihatdan quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1.Tub ravishlar: حالا، امروز، دیروز، امشب، الآن، اکنون، ظهر، عصر، شب، شام، پریروز، امسال، پارسال، هرگز، همیشه

قرار بود که فردا در دانشگاه ملاقات کنیم

Ertaga universitetda uchrashishga kelishdik.

فردا جشن تولد مادرم است، به این سبب الان کیک تهیه می کنم

Ertaga onamning tug'ilgan kun bazmi bo'lganligi sababli hozir to'rt pishiryapman.

از نظر اقتصادی ما همیشه وضع خوب و حتی عالی
اشتیم

Moliyaviy jihatdan bizning har doim vaziyatimiz yaxshi va hatto oliy bo'lgan.

چرا امشب اینها اینطوری جواب دادند؟

Nega bular bugun kechqurun bunday javob berdilar?

² حسین اجمی. دستور زبان فارسی. - تهران، ۱۳۷۳. - ص. 33

³ Рахманбердиев К. Ўзбек тилида кўрув туйғусини ифодаловчи феъллар: Филол.фан.номзоди...дисс. - Тошкент, 1969. - 152 б.

2. Yasama ravishlar:

Fors tilida yasama ravishlar asosan ravish+ho, qabl az+otli birikma, qabl az+olmosh, bad az+son+ot, bad az+ravish, bad az+infinitive, pas az+ot, pas az+izofaviy birikmali tarkibiy tuzilmaga ega ravishlarni tashkil qiladi. Masalan;

a) Ravish+ها

آن روزها همه چیز برایم زیبا و قشنگ بود

U kunlari men uchun hamma narsa go'zal edi.

ظهرها برایم غذای جدا می خرید که از غذای بیمارستان خورم.

Ertablari kasalxonaning ovqatidan yemasligim uchun menga alohida ovqat sotib olar edi.

شبها که نوبت کشیک من بود او هم در بیمارستان می ماند

Men navbatchi bo'lganimda, kechqurunlari u ham kasalxonada qolar edi.

Bu usulda yasalgan payt ravishlari ko'pincha ish-harakatning takroriy bajarilish vaqtini anglatadi.

b) otli birikma + قبل از

قبل از شام همه درسهایم را تهیه کردم چون فردا امتحان مهمی دارم

Kechki ovqatdan oldin hamma darslarimni tayyorladim chunki ertaga muhim imtihonim bor.

تصمیم گرفتم قبل از فارغ التحصیل ازدواج نمی کنم

O'qishni bitirmasdan oldin turmushga chiqmaslikka qaror qildim.

izofaviy birikma + قبل از

وظیفه بود که قبل از تحویل سال هر دانشجو باید یک کتاب ترجمه کند

Yangi yildan oldin har bir talaba bir kitob tajima qilishi vazifa bo'ldi.

olmosh+ot + قبل از

قبل از این حوادث فکر اینجوری چیزها نکرده بودم

Bu voqealardan oldin, bunaqa narsalar haqida o'ylab ko'rmagan edim.

ot + بعد از c)

بعد از تعطیلات صبح زود به بیمارستان رفتم

Ta'tildan keyin, ertalab kasalxonaga bordim.

بعد از **izofiy birikma**

بعد از خوردن غذا همه مان رفتیم خیابان برای گردش

Ovqatlanib bo'lgandan keyin hammamiz aylanish uchun ko'chaga chiqdik.

بعد از **son+ot**

بعد از پنج روز به خواستگاری آمدند

Besh kundan keyin sovchilikka kelishdi.

بعد از **olmosh+ot**

بعد از همان روز هنوز احساسات خوبی ندارم

O'sha kundan beri o'zimni yaxshi his qilmayapman.

بعد از **ravish**

بعد از کمی گفت: دکتر افتخار پسر زرنگ و باهوشی است

Birozdan so'ng dedi: „doktor Iftixor es-hushli yigit“

بعد از **infinitive**

بعد از دیدن او همه گزشته ها به یادم آمد

Uni ko'rgandan keyin, hamma o'tmish esimga tushdi

ot پس از **d)**

پس از عروسی هنوز به دانشگاه نرفتم

To'ydan keyin, hali universitetga bormadim.

پس از **izofiy birikma**

پس از دست زدن به گوشت خام، باید دست هارا بشوید

Xom go'shtni ushagandan keyin qo'llarni yuvish kerak.

پس از **son+ot**

پس از چند دقیقه جواب او هم معلوم شد

Bir necha daqiqadan so'ng, uning javobi ham ma'lum bo'ldi.

پس از **infinitive**

من همیشه پس از تماشا کردن یک درام احساس غم می کنم

Men bir drama ko'rganimdan keyin, har doim siqilaman.

پس از ot+olmosh

پس از صحبت‌های ایشان، او تصمیمش را اعلام کرد

Ularning suhbatidan so'ng, u o'z qarorini e'lon qildi.

3. Asosiy old ko'makchili birikma

c) در +ravish

در صبح‌ها هرگز میل ندارم صبحانه بخورم

Ertalablari nonushta qilishni xohlamayman.

در son+izofiy birikma

در یک شب دیر کسی در را رد

Bir kuni kechasi bir odam eshikni taqillatdi.

در olmosh+ot

در آن روزها متوجه بعضی حرکات فرید که به نظرم غیر عادی و عجیب می‌آمو می‌شد

O'sha kunlari Feridning ba'zi harakatlari g'ayrioddiy va ajoyib tuyulayotganini sezdim.

از ot

آن روز من از دانشگاه زود آمده بودم

O'sha kuni men universitetdan erta kelgan edim.

از ravish

از دیروز برنامه ساختم که این عادت را دیگر تکرار نمی‌کنم

Kechadan boshlab bu odatni boshqa takrorlamaslikni reja qildim.

هر ot

تقریباً هر روز زنگ می‌زد و می‌پرسید: نتیجه چی شد؟

Deyarli har kuni telefon qilib, "javobing nima bo'ldi"? deb so'rardi.

تا ravish

آن روز نسیم تا صبح کله مرا خورد که ذره‌ای شک دارد اخلاق فرید مثل پدرش است

O'sha kuni Nasim Feridning xulqi oz bo'lsayam otasinikiga o'xshasa-chi deb ertalabgacha meni miyamni yedi.

سر ravish

تازه سر شب است مگر تو مرغی بخوابی؟

Endigina kech bo'ldi, nima sen tovuqmisan uxlaysan?

Ot+son

قرار بود ساعت هفت بعد از ظهر بیایند

Peshindan keyin soat 7 da keladigan bo'lishdi.

Olmosh+ot

آن شب فرید نه تلفن زد و نه به خانه آمد

O'sha kuni Ferid na telefon qildi va na uyga keldi.

Olmosh+ravish

همین الان پیشش برم و همه چیز را بگم

Hoziroq oldiga boraman va hamma narsani aytib beraman

Ravish+ravish

خیلی فکر نکردم، شب و روز فقط درس خواندم

Unchalik ham o'ylamadim, kecha-yu kunduz faqat dars qildim.

صبح زود تا در خانه را باز کردم دیدمش که کنار در ماشین ایستاده، تا مرا دید جلو آمد و سلام کرد

Ertalab eshikni ochishim bilan eshik oldida moshina turgan bo'lardi, meni

ko'rishi bilan oldimga kelib salomlashar edi.

فکراتو بکن فردا پس فردا پیشمون نشی

O'ylab ko'r, erta-indin pushaymon bo'lib qolma.

Yuqoridagi misollar tahlili yuzasidan quyidagilar aniqlandi:

Fors tilida tub ravishlar bilan bir qatorda yasama ravishlar ham qo'llaniladi.

Masalan, ravish+ho modelini oladigan bo'lsak, ushbu model doimiylik ma'nosini berib, gapda badiiy bo'yoqdorlikni oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, qabl az, bad az, dar, to so'zlari bilan yasalgan ravishlar va olmosh+ot, har+ot, az+ravish, az+ot modellari ham qo'llaniladi.

Yuqorida keltirilgan birikmalarning ba'zilar unchalik ham og'zaki va yozma fors tilida qo'llanilmaydi. Masalan, sar+ravish, pas az, pish az kabilar.

Bad az va pas az bilan yasalgan ravishlar va shuningdek, qabl az bilan pish az so'zlari orqali yasalgan ravishlar bir-biriga sinonimlik qiladi. Sar va dar so'zlari bilan yasalgan ravishlar ham bir-biriga sinonim.

Xulosa

Ravishlar mavzusidagi ushbu maqola, fors tilidagi ravishlarning ahamiyati va ularning turli turlari, xususan, payt ravishlari haqida chuqur tahlil o'tkazdi. Ravishlar, so'zlarning ma'nosini aniqlashda va gap tuzishda muhim rol o'ynab, muloqotni yanada boyitadi va ifodaliligini oshiradi. Ularning grammatik xususiyatlari, joy, vaqt va sabab kabi turlarga bo'linishi, fors tilining sintaktik tuzilishida muhim o'rin tutadi. Ushbu mavzu bo'yicha o'rganish, nafaqat fors tilining sintaksis va semantikasini chuqurroq tushunishga yordam beradi, balki tilni boyitish va undan samarali foydalanish imkoniyatlarini ham yaratadi. Ravishlar va payt ravishlarining to'g'ri ishlatilishi, gapning ma'nosini aniq va to'g'ri yetkazishga, adabiy tilni rivojlantirishga ham katta hissa qo'shadi.

REFERENCES:

1. Ю.А.Рубинчик. Грамматика современного персидского литературного языка // “Восточная литература”. – Москва, 2001.
2. Ali Akbar Dehkhoda. Loghatnāme-ye Dehkhoda – Iran, Tehran. 1931.
3. Mohammad Mo'in. فرهنگ فارسی معین Farhang-e fārsi-ye Mo'in – Iran, Tehran. 1972.
4. Jibrān Mas'ud. معجم الرائد Mu'jamu ar-raaid // دار العلم (Daaru al-ilm. – Livan (Lubnon), Bayrut, 1992 (ilk nashr 1964).
5. معجم الوسيط Mu'jamu al-vasit // مكتبة الشروق الدولية (Sharq xalqaro kutubxonasi). – Misr, Qohira, 2011.
6. Nuriddinov, N. (2019). Reduplication of adverbs, past and present participles in Persian language. Theoretical & Applied Science, (12), 634-639.
7. Nodir Mr, N. (2020). Structural-semantic analysis of polynomial verbal copulative phraseologies in Persian language. The Light of Islam, 2020(1), 170-177.
8. D.Ahmedova, X. Alimova, N. Nuriddinov. Reduplication in Persian language // PalArch's Journal of Archaeology of Egypt / Egyptology (PJAE). Vol. 17 No. (7) (2020).